

PROFESSOR PO‘LAT SOLIYEV IJODIDA MANG‘ITLAR DAVRI TARIXI MASALALARI

*Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti, o‘qituvchi*

Bugungi kunga kelib tarix fanida Vatan tarixining dolzarb muammolarini tadqiq etishga tamomila yangicha uslublar bilan yondashish davri boshlandi. Bu davrning asosiy xususiyati ilgari tadqiq etilgan tarixiy voqealar mohiyatini mutlaqo yangicha mushohada qilish bilan ta’riflanadi. Zero zamonamiz tarixchi olimlariga o‘tmish haqidagi haqiqatni aniqlashdek mas’uliyatli va muhim vazifani tazyiq va nazoratlarsiz, xolisona, ”mumkin” yoxud “mumkin emas” degan cheklashlarsiz bajarish imkoni yaratildi.

Po‘lat Soliyev o‘tgan asrda O‘zbekistonda tarix fani sohasida birinchi bo‘lib professor unvoniga sazovor bo‘lgan, O‘zbekiston va O‘rta Osiyo xalqlarining tarixini ilmiy asosda o‘rganish maktabini yaratgan fidokor insondir.

Ibrohim Mo‘minov, Yahyo G‘ulomov, Rashid Nabiyeu kabi mashhur tarixchi olimlar shu maktabda voyaga yetgan. Atoqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjon shu olimdan Samarqand Davlat Universitetida saboq olgan. Professor Po‘lat Soliyev XX asrning dastlabki o‘ttiz yilligi mobaynida Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Xodi Fayziy kabi yirik davlat va jamoat arboblari, fan va majaniyat namoyandalari bilan hamfikir, hammaslak bo‘lgan. Ular Po‘lat Soliyevga yangi milliy tarixnavisligimizning qaldirg‘och, fundamental asarlarini yaratgan olim sifatida katta hurmat-ehtirom bilan qaraganlar.

Tarixshunos olim Po‘lat Soliyev O‘zbekiston va O‘rta Osiyo xalqlari tarixiga doir qimmatli manbalarni ham to‘plagan. Ularning asosiy qismi hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar zaxirasida va kutubxonasida saqlanmoqda.

Zamondoshlari uning o‘ta bosiq, kamgap, chuqur ichki madaniyatli, kamtar, ilmiy bahslarda boshqalarning nuqtai nazari va fikrini diqqat bilan o‘rganib,

munozarali jihatlarini chuqur asosli dalillar bilan isbotlab beradigan inson va olim ekanligini o'z xotiralarida yozib qoldirganlar.

1927–1930 yillarda O'zbek Davlat Pedagogika akademiyasi ijtimoiy va iqtisodiy bo'limi talabasi bo'lgan akademik Yahyo G'ulomov ustoz professor Po'lat Soliyevni xotirlar ekan, uni arab, fors, rus va turkiy tillarni mukammal biladigan, Sharq huquqi, falsafasi, axloqi, tarixi, ayniqsa, Turkiston xalqlari tarixining chuqur bilimdoni sifatida ta'riflaydi.

Yahyo G'ulomovning xotirlashicha, Po'lat Soliyev “Turkiston tarixi bo'yicha o'qigan ma'ruzalari xotimasida kishini avvalo o'z mamlakati, shahri va tug'ilib o'sgan qishlog'ining tarixini yaxshi bilishga da'vat etardi”.

Buxoro tarixi O'zbekiston tarixining tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Mustaqilligi yillarida, ayniqsa keyingi uch yilda madaniy-ma'rifiy jabhalarda olib borilayotgan keng islohotlar natijasida fan darajasiga ko'tarildi. Buxoro tarixiga qiziqish va uni jamiyatning ziyoli tabaqalari o'rtasida targ'ib qilish uzoq o'rta asrlardan boshlangan. Bu holatni o'sha davrning ma'rifiy ehtiyoji deb qarash kerak. Bunga misol qilib Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarini ko'rsatish mumkin. Undagi ma'lumotlar ayrim hollarda rivoyatlar bilan omuxta holda taqdim qilinishini o'sha davrning uslubi va tarix yozish tartibi deb hisoblash o'rinli. Shunga qaramay, asar faktik ma'lumotlarga boyligi bilan ilk mahalliy tarixnavislikning diqqatga sazovor namunasidir.

XX asrning 20-30-yillarida sermahsul ijod qilgan atoqli muarrix Po'lat Solievning ilmiy merosi, uning ijodi to'g'risidagi ayrim biografik va publitsistik maqola va risolalarni istisno qilganda, hali etarli bahosini olmagan.

Po'lat Solievning “Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi” nomli asari mang'itlar davri tarixini o'rganish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotda muallif o'zidan oldingi tarixchilarning asarlaridan manba sifatida foydalangan bo'lsa-da, Ahmad Donish, Mirzo Somiy nuqtai nazarini to'liq qabul qilmagan va o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan.

Buxoro o'lkasining tanazzulga yuz tutish sabablarini Po'lat Soliev mang'itlar hukmronligi bilan bog'laydi. IX-XV asrlarni Buxoro tarixidagi porloq davrlar deb hisoblaydi. Negadir mo'g'ullar istilosi davridagi vayronagarliklar, iqtisodiy va siyosiy tanazzul muallif tomonidan chetlab o'tilgan. Buning o'rniga mang'it qabilalarining aynan mo'g'ullar istilosi davrida Chingizxon qo'shinlari tarkibida g'arbga tomon siljiganligi va Amudaryoning quyi oqimiga kelib o'rnashib olganligi va keyingi asrlarda, xususan Shayboniyxon hukmronlik yillarida uning qo'shini tarkibida Xuroson yurishlarida ishtirok etishi, keyinchalik Qarshi atroflarida joylashib olishi kabi ma'lumotlar tavsiya etiladi.

Ahmad Donish va Sadridin Ayniydan farqli o'laroq, Po'lat Soliev mang'itlar davri tarixini qisqa xronologiyada beradi. Asosan Amir Shohmurod, ya'ni Amir Ma'sumdan Amir Muzaffargacha bo'lgan davr qamrab olingan. Mang'itlarning tashqi siyosatiga tanqidiy munosabat bildiradi. Evropaning qudratli davlatlari tashqi siyosatida ustuvor bo'lgan "Sharq masalasi"ning musulmon mamlakatlari uchun qay darajada xavfli ekanligidan Buxoro hukmdorlari bexabarligini afsus bilan yozadi.

Po'lat Soliev fikricha, mang'itlar hukmronligi Amir Ma'sumdan, ya'ni Amir Shohmuroddan boshlangan. Muhammad Rahimxonni umuman tilga olmaydi. Lekin Amir Doniyolning Ashtarxoniylar davridagi obro'-e'tiborini adolat yuzasidan e'tirof etadi. Buxoroning so'nggi o'rta asrlar tarixnavisligida Amir Shohmurod shaxsi ijobiy bo'yoqlarda tasvirlanadi. Ayniqsa, Ahmad Donish Amir Shohmurodni ummaviylarning sakkizinchi xalifasi Umar bin Abdulazizga qiyoslab, uning darvishona turmush tarzini maqtovlar silsilasida bayon etadi. Po'lat Soliev ushbu an'anadan chekingan holda Amir Shohmurod shaxsiga o'ta tanqidiy munosabatda bo'lgan va uning islohotchilik faoliyatiga panja ortidan qaragan. Amir Shohmurod davrida dinning maydalashib ketganini qoralaydi. Mazkur masalada Po'lat Soliev va Fitrat fikrlari mushtarak.

Po'lat Solievning "Mang'itlar saltanati davrida Buxoro o'lkasi" nomli risolasini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarni ilgari

- risola murakkab tarixiy davrda yozilgani bois, unda davr ilmiy tafakkuri aks etishi muqarrar edi;
- muallif masalani hukmron mafkura talablari doirasida bayon etish uchun o'zini mas'ul deb hisoblagan;
- muallif Buxoro amirligining Rossiyaning yarim mustamlakasiga aylanishini Buxoroning o'z mustaqilligidan to'la mahrum bo'lishi deb hisoblab, so'nggi Buxoro amirlari – Amir Abdulahad va Amir Olimxon siyosiy faoliyatini izohlashni lozim topmagan;

Buxoro xonligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan Jo'ybor xo'jalari xonadoni tarixi bo'yicha o'tgan asrning 50-yillarida P.P.Ivanov tomonidan fundamental tadqiqot amalga oshirildi. Olimning qiziqish doirasi Jo'ybor xo'jalari xo'jaligining tashkil topishi va rivojlanishi masalalarini qamrab oladi. U Xo'ja Islomning Buxoro xoni Abdullaxonga bo'lgan ta'sirining moddiy va ma'naviy sabablarini ochib berish jarayonida xonadonga tegishli erlarning miqdori to'g'risida ma'lumot beradi. Umuman, Xo'ja Islom tomonidan xonadon iqtisodiy poydevorining yaratilishi va mustahkamlanishini misollar bilan ko'rsatib o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). Бухоро амирлигида ташқи сиёсат ва дипломатиянинг ривожланиши тарихидан. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
2. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). Бухоро амирликда оила, никоҳ ва мерос ҳуқуқининг амалда қўлланиши. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
3. Temirov, F. (2023). SADRIDDIN AYNIIY IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 70-70.
4. Temirov, F. Of the journalistie work of Sadriddin Ayni Concerning Issues of Bukhara history. *Irish Interdisciplinary of Science & Research (IJSR) Vol*, 6, 12-17.
5. Темиров, Ф. У. (2023). Жизнь И Научно-Творческая Деятельность Садриддина Айни В Трудах Его Современников. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(2), 128-134.
6. Темиров, Ф. У. (2022). Мустақил ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ва кадрини улуғлаш–энг олий немати. *Academic research in educational sciences*, (1), 184-188.
7. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ–ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
8. Rajabov, O. (2021). “Тарихи Муллозода” асари–Бухоро муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари тарихи бўйича муҳим манба. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
9. Rajabov, O. (2021). Chor Bakr tarixiy me'moriy majmuasi xususida. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).

10. Rajabov, O. I. (2022). History of fortress of Makhmud Torobi. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
11. Rajabov, O. I. (2021). Buxorodagi ayrim muqaddas qadamjo-qal'alar xususida. *Scientific progress*, 1(6), 1162-1168.
12. Болтаев, А. Х. (2019). Исследование С. Юренева в мечети Калян. *Вестник археологии, антропологии и этнографии*, (1 (44)), 45-53.
13. Болтаев, А. Х. (2018). Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда СН Юренив ёзишмаларининг ўрни. *Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети хабарлари*, (1), 5-9.
14. Болтаев, А. Х. (2019). Бухарские коллекционеры. In *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (pp. 142-143).
15. Болтаев, А. (2020). Бухородаги биринчи музей. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
16. Naimov, I. N. (2021). A coverage of the activities of the Mangitic Emirs in the works of Ahmad Donish. *International Journal on Integrated Education*, 4(5), 36-45.
17. Klichev, O. (2020). Scholarships of Emirs of Bukhara. *Oriente moderno*, 100(1), 57-74.
18. Кличев, О. А. (2020). Особенности приема посольств Российской Империи в Бухарском Эмирате во второй половине XIX в. *Россия и мусульманский мир*, (1 (315)), 99-113.
19. Klichev, O. A. (2016). Discourse to the history of political agency in the emirate of Bukhara. *Europaische Fachhochschule*, (8), 14-15.
20. Abdurasulovich, K. O. (2023). ACTIVITY OF EDITORS OF" BUKHORONOMA" NEWSPAPER. *Open Access Repository*, 4(3), 1385-1388.
21. Кличев, О. (2020). БУХОРО АМИРЛИГИ ВА РОССИЯ ИМПЕРИЯСИ ЎРТАСИДАГИ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРДА СОВФА АЛМАШИНУВ ТАРТИБЛАРИ. *Farg'ona davlat universiteti*, (4), 71-74.
22. Utaeva, F. K., & Zhumaeva, N. A. (2019). The interpretation of the reign of mangit rulers and their personality in periodical press. *Ўтмишга назар журнали*, 22(2).
23. Бобожонова, Ф. Х. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ МАСАЛАЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(NUU Conference 2), 1024-1028.
24. Вобојонова, Ф. (2021). Бухоро амирлигидаги янги усул мактабларининг фаолияти. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
25. Beshimov, M. (2022). Abdulvahid Munzim-enlightened poet, state and public figure. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
26. Beshimov, M. (2023). ISSUES OF AGGRESSION OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE WORKS OF MIRZO SOMI. *Modern Science and Research*, 2(7), 316-321.
27. Beshimov, M. (2021). Mang'itlar davrida Buxoroda madaniy hayot. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 7(7).
28. Beshimov, M. (2023). THE HISTORY OF BUKHARA OF THE DOCUMENTS OF THE QUSHBEGI ARCHIVE IMPORTANCE IN LEARNING. *Modern Science and Research*, 2(7), 305-309.
29. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 101-104.
30. Ravshanovich, S. D. (2022). CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 55-59.

31. Nosirov, S. (2022). Sadriddin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o'rganuvchi manba sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
32. Sherzod, N. (2023). HISTORIAN SCIENTIST POLAT SOLIYEV IS A RESEARCHER OF THE HISTORY OF BUKHARA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 3(3), 32-38.
33. Sherzod O'ktam o'g, N., & Komilovich, B. M. (2023). Illumination of socio-economic issues in Turkestan in the works of Professor Polat Soliyev. *Telematique*, 22(01), 1278-1282.
34. Nosirov, S. (2022). SADRIDDIN AYNIYNING 1917-1920-YILLARDAGI TARIXIY JARAYONLAR BORASIDAGI QARASHLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
35. Sherzod, N. (2023). HISTORIAN SCIENTIST POLAT SOLIYEV IS A RESEARCHER OF THE HISTORY OF BUKHARA. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 3(3), 32-38.
36. Nosirov, S. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIEV IJODIDA TURKISTON TARIXI MASALALARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 29(29).
37. Nosirov, S. (2022). BUXORO AMIRLIGI MAORIF TIZIMIDA YANGI USUL-JADID MAKTABLARINING FAOLIYATI (S. AYNIY XOTIRALARI ASOSIDA). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 26(26).
38. Элова, Д. Д. (2024). Туркистон тараққийпарварларининг янги техникалар ва уларнинг ўлка бўйлаб тарқалишидаги роли. *Journal of Research in Innovative Teaching and Inclusive Learning*, 2(1), 9-12.
39. Элова, Д. Д. (2021). БУХАРА: ПРОЦЕСС МОДЕРНИЗАЦИИ В ПЕРВОЙ ЧЕТВЕРТИ 20 ВЕКА. In *Молодежь, власть, общество: проблемы и перспективы взаимодействия* (pp. 24-27).
40. Umarov B. NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ XO'JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
41. Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
42. Umarov, B. (2020). БУЮК ОЛИМ НА КИСЛЯКОВНИНГ ПЕДАГОГЛИК ФАОЛИЯТИГА НАЗАР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).